

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISH.

Jumadurdiyeva Zebiniso Jamoljonovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi .

Zebinisojumadurdiyeva08@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi globallashtirish sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojarolar davom etayotgan bir paytda diniy ekstremizm va terrorizm ham keskin rivojlanib ,kurtak ochib ketmoqda.Ushbu maqolada bunday tuban illatlarning gullab ketmaktligining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar:ekstremizm,terrorizm,tahdid,mafkuraviy bo'shliq,globallashtirish, ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi.

Kirish.

Terrorizm jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish,aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usuli.

Bugungi kunda terrorizm tahdidiga qarshi kurashish ,uni oldini olish murakkab jarayonga aylanib bormoqda .BMT ma'lumotlariga ko'ra,birgina 2009-yilning o'zida dunyoning 83ta mamlakatida amalga oshirilgan terroristik harakatlarida 15 700nafar inson hayotdan bevaqt ko'z yumgan.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur.Avvallari biron bir shaxs yoki siyosiy arboblarga qarshi uyishtirilgan terror amaliyotini ko'p uchratgan bo'lsak,hozir esa, jamoat joylarida ,samalyot,avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab insonlarning hayotiga rahna solmoqda.

Ekstremizm jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik tushunchasi hisoblanadi.

Ekstremistik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy xayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni va jamiyat taraqqiyotini jiddiy qiyinlashtirishga olib keladi.

Zamonaviy ekstremiz va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasining o'z taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini, haligacha terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosi kabi qator tahdidlar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyodagi kuchlar nisbatini hisobga olib, ishlab chiqqan.

O'zbekiston davlatining barqaror taraqqiyot xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki siyosati ham ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ekstremizmdan terrorizmning kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan faol strategiyadir. Unda ekstremizmga qarshi kurash orqali bunday tuzilmalar bag'rida voyaga yetishi mumkin bo'lgan terrorchilar faoliyatining oldini olishga intilish o'z aksini topganini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek davlati tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa soxalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bu kurash strategiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mutaxassislar ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida mafkuraviy bo'shliqning ta'siri va qadriyatlar mo'ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo'lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko'rsatadilar. Mafkuraviy bo'shliq ko'pincha kishilarda jamiyatdagi mavjuda holatni ,ijtimoiy muhitni no'tog'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo'y sundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirishiga zamin yaratadi.

Ekstremizmga qarshi kurashishda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy o'zlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat , to'g'ri shakllantirgan ong ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash xamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

Xulosa.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan ,bir qarashda arziyas bo'lib tuyiladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan ,lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Marhum prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida "Yoshlarimiz ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalikdan boshlab shakllantirishimiz zarur" deganlar. Shunday ekan ,biz yoshlarga bolalikdan ta'lim-tarbiya berib ,vataniga xalqiga foyda keltiradigan farzand qilib tarbiyalashimiz lozim. Zero, ulardan kelajakda mamlakat taraqqiyotini, shon-shuhratini o'ylaydigan shaxs shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Diniy ekstremiz va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. -246 b.

2.Ma'naviy tahdidlar va unga qarshi kurashish yo'llari.Alesher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2010. 112 b.

3.O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash" to'risidagi qonuni.15.12.2000.167-||-soni.